

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ERKIN SHAXSIYAT EGALARI ETIB TARBIYALASHDA MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTINING O`ZIGA XOS AHAMIYATI.

Nilufar Sultonova

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni erkin shaxsiyat egalari etib tarbiyalashda maktabgacha ta`lim tashkilotining o`ziga xos ahamiyoti haqidagi masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so`zlar: Maktabgacha ta`lim tashkiloti, rivojlanish markazlari, pullik xizmat, musiqa, sport,

KIRISH

Hayotimizni bolalarni kulgusiz tasavvur eta olmaymiz. Farzandlarimizni baxtli kelajagi ustuvor maqsadimizdir. Zero, bolaning sog`lom, keng dunyoqarash va erkin shaxsiyatini rivojlantirish, uning qobiliyatlarini ko`rsatib berish va bilimga bo`lgan mehrini uyg`otishda maktabgacha ta`lim tashkiloti muhim ahamiyot kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Shu boisdan ham prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan qarorlar va farmonlar bejizga emas. Shunday farmonlardan biri “Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi PF-5198 bo`lib, unda xorijiy davlatlar ilg`or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta`lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo`naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma`naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratiladi .[1]

Qolaversa, maktabgacha ta`lim vazirligi o`z oldiga - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellectual, axloqiy – estetik va jismoniy rivojlantirish, olamni teran idrok qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish, milliy - madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi va

bolalikdan kitob o`qishga qiziqishini oshirish maqsadida maktabgacha ta`lim tashkilotlarini har tomonlama rivojlantirish, o`yinlar to`plamlari, mebel, jihozlar va boshqa reabilitatsiya vositalari bilan ta`minlashni bugungi kundagi oliy maqsadlaridan biridir deb hisoblaydi.[2]

NATIJALAR

So`zlarimning yaqqol dalili sifatida bugungi kundagi zamon talablariga to`liq javob beraoladigan maktabgacha ta`lim tashkilotlarining mavjudligi quvonarli holdir. Zamonaviy maktabgacha ta`lim tashkiloti qanday bo`lishi kerak degan savol tug`iladi albatta. Meningcha, zamon talablariga javob beradigan maktabgacha ta`lim tashkiloti, har jihatdan – moddiy texnik bazasi, ta`lim – tarbiya, pedagoglarning bilim salohiyati va bolalarning maktab ta`limiga sifatli tayyorligida belgilanadi. Axborot kommunikatsiya shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashayotganligimizni teran anglagan maktabgacha ta`lim tashkiloti barcha tarbiyachi-pedagoglari zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o`z o`rnida qo`llay olmog`i va kunlik faoliyatlari jarayonlarini multimedia, slayd va video roliklardan foydalangan holda olib borishlari lozimdir.

MUXOKAMA

Bundan tashqari maktabgacha ta`lim tashkilotida pullik xizmat ham tashkil etilib, unda bolalarning bo`sh vaqtlari samarali uyushtirilishi, rivojlanish sohalari asosida bilimlarini oshirib, ijodiy va badiiy qobiliyatlarini sayqallab borishlari lozim. Maktabgacha ta`lim tashkilotida barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o`zlashtirishga, mustaxkamlashga yordam beradi. Undagi o`yinlar to`plamlari, didaktik, o`quv metodik qo`llanmalar, badiiy adabiyotlar va ko`rgazmali qurollardan tarbiyalanuvchilar bemalol foydalana olishi ularning ertangi kunda har tomonlama intellectual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish, olamni teran idrok qilaoladigan va bolalikdan kitob o`qishga mehr bilan ulg`ayadigan etib tarbiyalashga ko`mak beradi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotida issiqxonlar tashkil etilsa bu yana ham yaxshi natijalar beradi. Masalan, bolalar issiqxonalarda o`zlari mehnat qilib, o`z qo`llari bilan poliz ekinlar va sabzavotlar, rezavorlarni tarbiyachilar yordamida ekishsa bu ilm, fan va tabiat markazlarida ishlash jarayonlarini yana ham zavqli va mazmunli o`tishini ta`minlaydi hamda Vatanga mehr – muhabbat, ona tabiatga g`amxo`r, o`z ishiga mas`uliyatli va irodali, mehnatsevar bo`lib ulg`ayishiga zamin bo`ladi.

Musiqqa xonalari – zamon talablariga javob beradigan musiqiy asboblar bilan taʼminlangan boʻlishi kerak. Mazkur musiqqa asboblari orqali bolalar musiqiy taʼlim – tarbiya oladilar, hamda oʻz ijodlarini koʻrsata bilishlari va qalban musiqani his qilaolishlari, Vatanga muhabbat, estetik didni shakllantirish uchun musiqaning hissasi beqiyosdir.

Sport mamlakatni dunyoga tanitadigan va yurtni ulugʻlaydigan sohalardan biri ekanligi hech birimizga sir emas albatta. Shu tufayli ham hozirgi vaqtda sportga eʼtibor kattadir. Bu eʼtiborni esa maktabgacha yoshdan boshlasak maqsadli boʻladi, axir aytishadiku taʼlim – tarbiya qancha tez boshlansa natijasini ham shunchalik tez koʻrsatadi deb. Shuning uchun maktabgacha taʼlim tashkilotida sport zallarining bolalar yoshi va ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda jixozlanishi bugunning talabidir.

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, Yunon faylasufi Suqrot “Tarbiya-murakkab ish, uning shart-sharoitlarini yaxshilash esa har bir kishining muqaddas burchlaridan biridir” deya taʼkidlagan edi oʻz zamonasida. Shunday ekan, bugungi kunda yorugʻ kelajak atalmish katta yoʻlni boshida turgan farzandlarimizni rivojlangan mamlakatlardagi doʻstlari, tengdoshlaridan kam boʻlmay ulgʻayishlari oʻz fikrlarini baralla aytaolishlari va qatiyat bilan turaolishliklari uchun davlatimiz tomonidan barcha shart – sharoitlar shakl shubxasiz yaratilmoqda. Biz maktabgacha taʼlim sohasi pedagog-tarbiyachilari bunday shart –sharoitlarni hamda yurtboshimiz va maktabgacha taʼlim vazirligi tomonidan koʻrsatilayotgan eʼtiborlari va gʻamxoʻrliklarini mashaqqatli, lekin sharaflil kasbimizning fidoiysi boʻlib, Vatanimizning yorugʻ istiqboli yoʻlida bor kuch va gʻayratimizni safarbar etmogʻimiz lozimligini unutmasligimiz darkor.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Farmoni “Maktabgacha taʼlim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-5198 2017-yil 30-sentyabr.[1]
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning Davlat standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori-802 2020-yil 22-dekabr[2].
3. F.Qodirova. Maktabgacha pedagogika – 2019yil. 430 bet.
4. F.Qodirova, Sh.Toshpoʻlatova, N.Kayumova, M.Aʼzamova..Maktabgacha taʼlim – metodikasi va nazariyasi jurnali 2020 yil/8-son.

